



**«TASDIQLAYMAN»  
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB  
Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.:  
B.Sharipov**

**«5» iyun 2026 y.  
№ 408**

**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB balansidagi mulklarni but  
saqlash uchun qo‘riqlash xizmatini xarid qilish bo‘yicha**

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

<b>№</b>	<b>Asosiy ma’lumotlar va talablar nomi</b>	<b>Ma’lumotlar va talablar mazmuni</b>
<b>1</b>	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
<b>2</b>	Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmatning to‘liq nomi	Bankning muammoli kredit qarzdorliklari evaziga bank balansiga qabul qilingan, shuningdek qabul qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan mulklarga zaraz yetishi va o‘g‘irliklarni oldini olish bo‘yicha qo‘riqlash xizmatini xarid qilish.
<b>3</b>	Xaridni amalga oshirish uchun asos	- O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida“ O‘RQ-684-sonli Qonuni; - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 276-sonli qarori; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda gi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-259-sonli Farmoni; - Bank Boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda gi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi;
<b>4</b>	Buyurtmachi manzili	100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko‘chasi, 18-A
<b>5</b>	Xizmat ko‘rsatish manzili	O‘zbekiston Respublikasi barcha hududlari bo‘ylab

<p>6</p>	<p>Xizmatlarning batafsil tarkibi</p>	<p><b>Bank balansidagi mulklarni but holatini saqlash bo'yicha qo'riqlash xizmatini tashkil qiluvchi Ijrochi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Saqlash uchun topshirilgan mulklarning daxlsizligi va butligini ta'minlash;</li> <li>➤ Har bir ko'chmas mulk bo'yicha 24/7 rejimida mulk hududini ko'zdan kechirib borish va nazorat qilish ishlarini tashkil etish hamda buyurtmachi talabiga ko'ra kamida 1 nafar nazoratchi shaxs bilan ta'minlash (bunda innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa bo'ladi);</li> <li>➤ Bank balansidagi mulklarni but holatini saqlash bo'yicha mas'ul etib biriktirilgan shaxslar ruhiy kasalligi bo'lgan, narkologik kasalliklarga chalingan, sudlangan, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki muomala layoqati cheklangan hamda chet el fuqarolari bo'lmasliklari lozim;</li> <li>➤ Har bir obyektga biriktirilgan mas'ul shaxslar bilan doimiy aloqa (telefon yoki ijtimoiy tarmoqlar) tizimini yaratish;</li> <li>➤ Xizmatlarni ko'rsatish davomida bank mulkiga yetkazilgan har qanday turdagi zarar (bevosita yoki bilvosita, qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida obyekt yoki uning ma'lum bir qismi shikastlanishi, yo'qolishi va boshqa) Ijrochi tomonidan 20 ish kuni davomida bartaraf etilishi yoki zarar miqdori pul ko'rinishida 5 ish kuni ichida qoplanishi lozim. Bundan fors-major holatlar (zilzila, ko'chki, bo'ron, suv toshqini) natijasida yetkazilgan zarar mustasno. Sanalgan fors-major holatlarining turlari tugal hisoblanadi va boshqa turdagi holatlar tuziladigan shartnoma bo'yicha fors-major deb e'tirof etilmaydi;</li> <li>➤ Ijrochi sifatli xizmatlarni ko'rsatish maqsadida videokuzatuv vositalaridan foydalanish huquqiga ega. Bunday holda videokuzatuv kameralaridan obyektlardagi tasvirlarni doimiy kuzatish, nazorat qilish, yozib olingan tasvirlarni ko'rish, saqlash bo'yicha dasturiy ta'minotdan foydalanish huquqini beruvchi litsenzion shartnomaga ega bo'lishi lozim, Ijrochi video kuzatuv kameralarida yozib olingan ma'lumotlarning maxfiyligiga to'liq javobgar hisoblanadi;</li> <li>➤ Obyektlarni 24/7 vaqt rejimida onlayn ko'ra olish imkoniyatini yaratuvchi Dasturiy ta'minot bilan</li> </ul>
----------	---------------------------------------	--

		<p>ta'milashi lozim;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Bankning har bir BXMga dasturga kirish kamida bitta login va parol berish va dasturiy ta'minot orqali buyurtma jo'nata olish imkoniyatini yaratishi;</li> <li>➤ Har bir hudud faqat o'ziga tegishli bo'lgan obyektlarni ko'ra olish imkoniyatini yaratishi;</li> <li>➤ Bosh ofis xodimlari uchun barcha hududlardagi obyektlarni ko'ra olish imkoniyati yaratishi;</li> <li>➤ Kamida 10 kunlik video tasvirni saqlash va keyinchalik ko'rish imkoniyatining mavjudligi;</li> <li>➤ Dasturda aniqlangan nosozliklar, ishdagi uzilishlar va kamchiliklar ariza kelib tushgandan so'ng 24 soat ichida bartaraf etishi;</li> <li>➤ Kuzatuv kameralari lavhalarida videokamera raqami, tasvir sanasi va vaqtini ko'rsatgan holda (begona shaxslarning xatti-harakatlarini) kechayu-kunduz yozib olishi lozim;</li> <li>➤ Kuchlanishning uzoq vaqt davomida uzilishi (tizim o'chishiga olib keladigan) va keyinchalik elektr ta'minoti qayta tiklanganidan so'ng, video kuzatuv tizimi yoqilishi va elektr uzilishidan oldin belgilangan sozlamalar bilan avtomatik ravishda video yozish rejimiga o'tishi lozim;</li> <li>➤ Kuzatuv kameralari rangli tasvirga olishi, kechqurun tasvirga olish qobiliyatiga ega 2 megapikselli bo'lishi, havo xaroratining -20...+55 gradusida ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi, harakat datchiklari hamda elektr tarmog'ida uzulishlar yuzaga kelganda kuzatuv kameralari uzuluksiz ishlashi uchun rezerv elektr energiya (quyosh paneli, akkumlyator batareyasi, generator yoki boshqa) manbasiga ega bo'lishi lozim;</li> </ul>
7	Ijrochi quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak	<p>-O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ma'lumotlar bazalarida ishtirokchining sud qarorlari bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari mavjud emas bo'lishi;</p> <p>-Soliqlar va yig'img'lar to'lovi bo'yicha muddati kechiktirilgan qarzdorligi yo'q bo'lishi;</p> <p>-O'ziga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillarining mavjud emas bo'lishi;</p> <p>-Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi.</p>
8	Shartnomani amal qilish muddati	Tomonlar o'rtasida imzolangan shartnoma summasi to'liq foydalanilgan kunga qadar.

9	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar bajarilganidan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolanganidan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
10	Bog'lanish uchun aloqa telefonlari	+998781509339
11	To'lovni amalga oshirish	Xizmat uchun to'lov 1-ilovada keltirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi. Buyurtmachi talabiga asosan har bir ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha qabul qilish topshirish dalolatnomalari tomonlar o'rtasida imzolanganidan so'ng, buyurtmachida asosli e'tirozlar bo'lmasa 5 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi.

## 1-ilova

### Bank balansidagi mulklarni but holatini saqlash bo'yicha qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish tariflari

Ko'chmas mulklar va mulkiy majmualar (*bino-inshoot va uskunalalar*) uchun:

№	Maydon (foydali maydonga nisbatan)	Narx
1	1 000 kv.m gacha	
2	1 001 kv.m dan 4 000 kv.m gacha	
3	4 001 kv.m dan 7 000 kv.m gacha	

4	7 001 kv.m dan 10 000 kv.m gacha	
5	10 001 kv.m dan 15 000 kv.m gacha	
6	15 001 kv.m dan 20 000 kv.m gacha	
7	20 001 kv.m dan 30 000 kv.m gacha	
8	30 000 kv.m yuqori obyektlar uchun har bir 10 000 kv.m uchun qo‘shiladigan summa	

**Issiqxona majmualari uchun:**

№	<b>Maydon</b> <i>(bunda issiqxona inshootlari qurilish osti maydonga nisbatan)</i>	<b>Narx</b>
1	10 000 kv.m gacha	
2	10 001 kv.m dan 20 000 kv.m gacha	
3	20 001 kv.m dan 30 000 kv.m gacha	
4	30 001 kv.m dan 40 000 kv.m gacha	
5	40 001 kv.m dan 50 000 kv.m gacha	
6	50 001 kv.m dan yuqori bo‘lgan har bir 10 000 kv.m uchun qo‘shimcha qo‘shiladigan summa	

kelishuvchilar: Sh.Masharipov, J.Dusmukhamedov , A.Yuldoshev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=aL57aQ91&id=f5843d88-5de6-4e6c-a31c-03facb5dfce0>